XALQ DEPUTATLARI CHUST TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 14-may VII-9-38-6-89-K/25 Chust tumani

Xalq deputatlari tuman Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi “Chust tumanining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-4-017-6-89-K/24-sonli qarori bilan tasdiqlangan tuman mahalliy budjeti xarajatlari yoyilmasiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Budjet kodeksi”ning 143-moddasiga asosan hamda tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2025-yil 25-martdagi 01-14-237/20-02/99 sonli murojaatini hamda tuman hokimining o‘rinbosari – B.Djafarovning 2025-yil 26-martdagi 05-17/44-sonli xati, tuman hokimligi va tuman tibbiyot birlashmasining xalq deputatlari Chust tumani Kengashining 2025-yil 28-fevraldagi “Chust tumani mahalliy budjetining 2025-yil boshiga saqlangan erkin qoldiq mablag‘larini yo‘naltirish to‘g‘risida”gi VII-7-25-6-89-K/25-sonli qarori ilovasining tegishli bandlariga o‘zgartirish kiritish haqidagi takliflari, shuningdek, tuman Adliya bo‘limining 2025-yil 17-apreldagi 11-7/4-sonli taqdimnomasini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 6, 19^1 va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR- -QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining “Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarining xarajatlariga o‘zgartirishlar kiritish tartibi” to‘g‘risidagi 147-moddasiga asosan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarining xarajatlariga tegishli budjetlarning tasdiqlangan parametrlariga nisbatan ularning xarajatlarini 10 foizdan kam miqdorga ko‘paytirishni yoki kamaytirishni nazarda tutadigan o‘zgartirishlar kiritish tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar moliya boshqarmalari taqdimnomasiga ko‘ra tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari tomonidan hamda “Tumanlar va shaharlar budjetining xarajatlari yoyilmasiga o‘zgartirishlar kiritish tartibi” to‘g‘risidagi 148-moddasiga asosan, Budjet tizimi budjetlariga o‘zgartirishlar kiritish tartibi to‘g‘risidagi 143-moddasiga asosan amalga oshirilishi belgilangan.

“Budjet tashkilotlarida ishlovchi ayollarga homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha nafaqa, fuqarolarning ayrim toifalariga uy-joy kommunal xizmatlar haqqini to‘lash

bo‘yicha imtiyozlar o‘rniga hujjatlarda nazarda tutilgan oylik kompensatsiya pul to‘lovlari hamda bola tug‘ilganda beriladigan bir yo‘la nafaqani to‘lash bo‘yicha xarajatlarni moliyalashtirish tartibi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2010-yil 23-fevraldagi ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami № 2080) Nizomga muvofiq, “Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchiga advokatlar tomonidan yuridik yordam ko‘rsatish bo‘yicha xarajatlarni davlat hisobiga o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 27-dekabrda 1878-1-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan) Nizomga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-apreldagi PQ-118-sonli qaroriga muvofiq, 2025-yil davomida tuman madaniyat bo‘limining 06.03.2025-yildagi 01-19/24-sonli, tuman hokimligining 17.03.2025-yildagi 04-05/52-sonli, tuman hokimligida 11.03.2025-yilda T-178-son bilan ro‘yxatga olingan tuman qo‘riqlash bo‘limining 10.02.2025-yildagi 2/45/33-38-sonli so‘rovlariga muvofiq 2025-yil davomida tuman mahalliy budjetining tasdiqlangan xarajatlar rejasi ko‘rsatkichlariga o‘zgartirishlar kiritilganligi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Umarov)ga 2025-yil uchun tasdiqlangan xarajatlar yoyilmasiga ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritish vazifasi yuklatilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi “2025-yilda Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1-sonli qarori ijrosini tumanda samarali ta’minlash maqsadida tuman hokimligi balansida foydalanilmayotgan bo‘sh bino mavjud emasligini inobatga olib, tumanda mahalla huquq-tartibot maskani tashkil etish uchun «Kafolat sug‘urta aksiyadorlik jamiyati»ga tegishli bo‘lgan bo‘sh turgan binoni sotib olish haqidagi taklif ma’qullansin hamda ushbu maqsad uchun zarur bo‘lgan mablag‘ tuman mahalliy budjetining 2025-yil 1-chorak yakuni bilan kutilayotgan daromadlar rejasini orttirib bajariladigan qismi mablag‘lari hisobidan ajratilishi tavsiya etilsin.

4. Tuman hokimligi va tuman tibbiyot birlashmasining xalq deputatlari tuman Kengashining 2025-yil 28-fevraldagi “Chust tumani mahalliy budjetining 2025-yil boshiga saqlangan erkin qoldiq mablag‘larini yo‘naltirish to‘g‘risida”gi -VII-7-25-6-89-K/25-sonli qarori ilovasining tegishli banlariga o‘zgartirish kiritish haqidagi takliflari ma’qullansin va ushbu qaror ilovasining:

2-bandidagi “Tuman hokimligini ta’mirlash xarajati” jumlasi “tuman hokimligini ta’mirlash bilan bog‘liq qurilish materiallari sotib olish va boshqa xarajatlar uchun” jumlasi bilan;

3-bandidagi «Tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli Damobod OSHP binosini ta’‘mirlash uchun qurilish materiallarini sotib olish xarajatlari» jumlasi «Tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli Damobod OSHP binosini ta‘’mirlash uchun qurilish materiallari sotib olish va boshqa xarajatlar uchun» jumlasi bilan almashtirilsin.

5. Tuman Adliya bo‘limining 2025-yil 17-apreldagi 11-7/4-sonli taqdimnomasi ma’lumot va asos uchun qabul qilinsin hamda mazkur qarorning qabul qilinishi

munosabati bilan xalq deputatlari tuman Kengashining 2025-yil 3-apreldagi VII-9-33-6-89-K/25-sonli qarori bekor qilinsin.

6. Mazkur qarorning ijrosining nazorati xalq deputatlari tuman Kengashidagi Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (U.Azizov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi

SALIMJONOV
BAXTIYORJON
RAXIMJONOVICH

Xalq deputatlari Chust tumani
Kengashining
2025-yil 14-maydagi
VII-9-38-6-89-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Xalq deputatlari tuman Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi “Chust tumanining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-4-017-6-89-K/24-sonli qaroriga muvofiq tasdiqlangan tuman mahalliy budjeti harajatlar yoyilmasiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida
MA’LUMOT

bo‘lim	Kichik bo‘lim	Bob	Xarajatlar moddasi	summasi (ming so‘m)
7011	204	18	14111100	-21638
7011	204	18	14111230	-862
7011	204	18	24121100	-5569
7011	205	18	14111100	-17048
7011	205	18	14111230	-679
7011	205	18	24121100	-4387
7011	999	18	14111100	38686
7011	999	18	14111230	1541
7011	999	18	24121100	9956
7042	980	170	44821190	-75000
7042	999	170	44821180	75000
7109	120	91	14111100	-11521
7109	120	91	14111230	-459
7109	120	91	24121100	-2965
7109	999	91	14111100	11521
7109	999	91	14111230	459
7109	999	91	24121100	2965
7091	100	72	4252110	-85000
7065	400	84	14111100	-84609
7065	400	84	14111230	-11036
7065	400	84	24121100	-23672
7065	999	84	14111100	84609
7065	999	84	14111230	11036
7065	999	84	24121100	23672
7082	310	56	14111100	-128000
7092	100	72	4299990	-200000
7082	310	56	14111230	-6400
7082	310	56	24121100	-33264
7082	999	56	14111100	128000
7082	999	56	14111230	6400
7082	999	56	24121100	33264
7082	310	56	44232200	79571

7085	400	26	44252110	-1300
7109	120	91	44234920	1000
7109	120	91	44292100	300
7045	208	84	14111100	-26322
7045	208	84	14111230	-3678
7045	208	84	24121100	-7425
7045	999	84	14111100	26322
7045	999	84	14111230	3678
7045	999	84	24121100	7425
7065	200	84	14111100	-21063
7065	200	84	14111230	-2820
7065	200	84	24121100	-5910
7065	200	18	4252110	-85221
7065	999	84	14111100	21063
7065	999	84	14111230	2820
7065	999	84	24121100	5910
7011	204	18	4821190	200000
7091	300	72	4521000	9660799
7096	600	56	4711150	26739
7096	100	72	4711150	9691
7092	100	72	44299990	-79571
7085	400	26	44299990	-6050
7109	401	18	4721900	6050
7085	400	26	4299990	-5000
7011	312	222	4234100	5000
7013	906	222	4821190	38883
7049	996	225	4354910	85000
7049	996	225	4111230	-46651
7049	996	225	4121100	-11546
7049	999	225	4111230	46651
7049	999	225	4121100	11546
7011	204	18	4293000	85221